



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION TASHABBUSLARI: YANGIICHA YONDASHUVLAR VA TRANSFORMATSIYALAR”

**II respublika talabalar
ilmiy-amaliy anjumani**

**III Sho'ba: Psixologiya sohasidagi zamonaviy
ta'dqiqotlarga yoshlarning munosabati**

2025-yil 27-mart



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION
TASHABBUSLARI: YANGICHA YONDASHUVLAR VA
TRANSFORMATSIYALAR**

**II-TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

*III Sho‘ba. Psixologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarga
yoshlarning munosabati*

2025-yil 27-mart

I QISM

TOSHKENT – 2025

9. Peregoy, S., & Boyle, O. (2001). *Reading, Writing, and Learning in ESL: A Resource Book for K-12 Teachers*. Longman.

10. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*. Cambridge University Press.

"SHAXSIY TEMPERAMENT: UNI BILISH VA BOSHQARISH

Ashiqbayev Erlon Mansur O'G'Li,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti I-Bosqich talabasi

Haydarova Zilola Normurodovna,

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti, pedagogika fanlari falsafa doktori, S.B.

Qorayev taqrizi asosida.

Annotatsiya: Maqolada shaxsiy temperament tushunchasi, uning inson xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Temperamentning asosiy turlari—sangvinik, xolerik, flegmatik va melankholik—ularning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, temperamentni anglash va uni boshqarish usullari haqida so'z yuritilib, shaxsiy va professional muvaffaqiyatga erishishda temperamentning roli muhokama qilinadi. Maqolada chet el psixolog olimlarning fikirlari asosida, temperamentni rivojlantirish va moslashtirish strategiyalarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'z: Temperament, Sangvinik, safro, Gippokrat

Annotation: The article analyzes the concept of personal temperament and its impact on human behavior and decision-making processes. The main types of temperament—sanguine, choleric, phlegmatic, and melancholic—are examined along with their characteristics and significance in life. Additionally, the article discusses methods for understanding and managing temperament, emphasizing its role in achieving personal and professional success. Based on psychological research, the study focuses on strategies for developing and adapting temperament.

Аннотация: В статье анализируется понятие личного темперамента, его влияние на поведение человека и процесс принятия решений. Рассматриваются основные типы темперамента — сангвиник, холерик, флегматик и меланхолик, их характеристики и значение в жизни. Также обсуждаются способы понимания и управления темпераментом, а также его роль в достижении

личного и профессионального успеха. Статья основана на психологических исследованиях и направлена на изучение стратегий развития и адаптации темперамента.

Kirish

Har bir insonning o'ziga xos fe'l-atvori, dunyoni qabul qilish usuli va harakatlariga ta'sir qiluvchi shaxsiy xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar temperament deb ataladi va insonning tug'ma psixologik tuzilishini ifodalaydi. Ushbu maqolada temperament tushunchasi, uning inson xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayoniga ta'siri hamda temperamentni anglash va boshqarish usullari tahlil qilinadi. Shunday qilib, temperament haqidagi ta'limot dastlab qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Temperament haqida o'z fikrini bildirgan birinchi olim qadimgi yunon tabibi Gippokrat (miloddan avvalgi V asr) edi. Gippokrat ta'limotiga ko'ra, inson tanasida to'rtta asosiy suyuqlik mavjud: safro (*cholé* – yunoncha), qon (*sanguis* – lotincha), qora o't (*melaina cholé* – yunoncha) va balg'am (*phlegma* – yunoncha). Ushbu suyuqliklardan biri odamda ustunlik qilsa, u shaxsning temperamentini belgilaydi.

Agar safro ustun bo'lsa – odam xolerik bo'ladi, agar qoni ko'p bo'lsa – sangvinik, agar qora o't ko'p bo'lsa – melankholik, balg'ami ustun bo'lsa – flegmatik temperament shakllanadi. Inson tanasidagi ushbu suyuqliklarning o'zaro mutanosibligi uning temperamentini aniqlaydi. Gippokrat bu muvozanatni *crasis* deb atagan. Keyinchalik bu atama lotin tiliga tarjima qilinib, temperamentum deb nomlangan, bu esa "aralashma" degan ma'noni anglatadi.

Psixologiyada temperament to'rtta asosiy turga bo'linadi:

1. Sangvinik – Faol, ijtimoiy va optimistik shaxslar. Ular tezda yangi muhitga moslashib, boshqalar bilan oson munosabat o'rnatadilar. Biroq, diqqatni uzoq vaqt bir narsaga jamlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.
2. Xolerik – Jo'shqin, energiyaga boy va qarorlarni tez qabul qiladigan insonlar. Ular rahbarlikka intiluvchan bo'lishadi, biroq hissiyotlarini nazorat qilish qiyin bo'lishi mumkin.
3. Flegmatik – Tinch, barqaror va vazmin shaxslar. Ular uzoq vaqt davomida muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga qodir bo'lib, sabr-toqatli bo'lishadi, lekin o'zgarishlarga moslashishlari sust bo'lishi mumkin.
4. **Melanxolik** – Tuzuk sezgir, ehtiyotkor va o'ziga nisbatan talabchan insonlar. Ular chuqur fikrlashga moyil bo'lishadi, biroq stress va tushkunlikka berilishga moyilligi yuqori.

Temperamentni Rivojlantirish va Uni Boshqarish

Temperamentning barcha xususiyatlari o'zgarmas va doimiy qoladi, degan fikr to'g'ri emas. Insonning fiziologik funksiyalari doimiy takrorlanish orqali shakllanadi va moslashuvchan bo'lib, nerv tizimi jarayonlarini ham ma'lum darajada o'zgartirish mumkin. Agar inson o'z ustida ishlasa, temperamentga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlarini nazorat qila oladi va ularni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu jarayon insonning ongi, irodasi va o'zini tarbiyalash qobiliyatiga bog'liq. Albatta, u o'z temperamentini butunlay o'zgartira olmaydi, lekin uni muvozanatlash va boshqarish imkoniyatiga ega.

Akademik I.P. Pavlovning tadqiqotlariga ko'ra, hatto temperamentning biologik asoslari ham o'zgarmas narsa emas. Uning fikricha, insonning nerv tizimi "atrof-muhit va tarbiya" ta'sirida o'zgarishi mumkin. Shu sababli, inson o'z temperamentining ijobiy tomonlarini kuchaytirishi va salbiy jihatlarga yo'l qo'ymasligi lozim. Temperamentlarning qaysi biri eng yaxshisi degan savolga aniq javob yo'q. Chunki har bir temperament turi o'ziga xos ijobiy va salbiy jihatlarga ega. Masalan, xoleriklar jo'shqin, faol va epchil bo'lsalar, shoshqaloqlik va jahldorlik ularning kamchiliklaridan hisoblanadi. Sangviniklar serzavq, quvnoq va harakatchan bo'lsalar-da, ba'zan yuzaki fikrlash va beparvolikka moyillik namoyon qilishlari mumkin. **Melanxolik**larning his-tuyg'ulari chuqur va barqaror bo'lishi yaxshi jihat bo'lsa, o'ziga ishonchsizlik va ortiqcha tashvish ularning salbiy xususiyatlaridandir. Flegmatiklar esa sabrli va barqaror xarakterga ega bo'lib, ularning sustkashligi va harakatsizligi kamchilik bo'lishi mumkin. Temperamentni tarbiyalash va rivojlantirishdan asosiy maqsad insondagi barcha xususiyatlarni birdek kuchaytirish emas, balki ijobiy tomonlarini rivojlantirib, salbiy jihatlarni minimallashtirishdan iborat. Bu jarayonda eng muhim omil – insonning irodasi va o'zini boshqara olish qobiliyatidir. Irodani mustahkamlash uchun esa inson g'oyaviy, siyosiy va ma'naviy tarbiyaga ega bo'lishi, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yishi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish yo'lida harakat qilishi kerak. Temperament insonning taraqqiy etishiga to'sqinlik qilmaydi, aksincha, u shaxs rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Biroq inson qanday yo'nalishda rivojlanishi, qanday xarakterga ega bo'lishi uning o'ziga va maqsadlariga bog'liq. Shu sababli, tajribali pedagoglar va psixologlar inson temperamentini inobatga olib, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishga e'tibor qaratadilar. Ular o'quvchilarga o'z temperamentlarini boshqarish va muvozanatlashtirishni o'rgatib, kuchli va ijobiy xarakterni shakllantirishga yordam beradilar.

Temperament inson xarakterining asosiy tarkibiy qismi bo'lsa-da, uning mazmunini belgilamaydi. Muhimi, inson o'z temperamentini to'g'ri boshqarib, hayotdagi maqsadlariga mos ravishda rivojlantira olishi kerak. Insoning xulq atvori hayoti davomida o'zgarib boradi. Bunda asosiy sababalar :stress, ko'p ishlash ,va hayotdagi qiyin muamolar orqali kelib chiqadi. Insoning temperamenti doimo o'zgarib turadi. Inson temperamentida eng yaxshi tip yo'q chunki barcha tiplarning o'ziga yarasha yaxshi va yomon tarflari mavjud bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. В.С. Мерлин. Очерк теории темперамента М : «Просвещение», 1964
2. E.G'OZIYEV "UMUMIY PSIXOLOGIYA"
- 3 И.П. Павлов. Обиетным влияниям на деятельность животных и человека. Книга II. М : 1951
4. ZN Haydarova (2024). [INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS](#). Western European Journal of Historical Events and Social Science 2 (10), 27-31
5. Психология курси. М.В. Гамезо тахрири остида. Тошкент: «Ўқитувчи» нашриёти, 1972.
6. Э. Готнев. Умный психология. 2-кн.об. -Тошкент: 2002.
7. Нарзулла Боймуродов. "Амалий психология". "Янги аср авлоди", 2008 йил

MUNDARIJA

TALABANING FAMILIYASI, ISMI, OTASINING ISMI	MAQOLA MAVZUSI	BETLAR
<i>Ibotova Malika Xayrullo qizi</i>	Yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashning psixologik jihatlar	7-10
<i>Rasulov Isomiddin Ravshanjon o'g'li</i>	Talabalar aggressiv xulqining stressni yuzaga keltiruvchi omili sifatida	10-14
<i>Jo'rayeva Nargiza To'lqin qizi</i>	Bo'lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	14-17
<i>Murodova Maftuna Orif qizi</i>	Fobiyalar va ularni yengish strategiyalari	17-22
<i>Xamrayeva Sitara Boboyor qizi</i>	Yoshlarda oilaviy qadriyatlarini shakllantirishning dolzarb muammolar	22-26
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi</i>	Ta'lim tarbiya jarayonida shaxsda men obrazining namoyon bo'lishi va uning psixologik mexanizmlari	26-30
<i>Qurbonova Movluda Axmadali qizi</i>	O'smirlik yoshidagi delikvent xulq muammosini o'rganish ijtimoiy-psixologik tadqiqot predmeti sifatida	30-33
<i>Sotvoldiyeva Nodirabegim Mirzoxidjon qizi</i>	Virtual kommunikatsiyaning inson psixikasiga ta'siri	33-37
<i>Iskandarov Turg'un Orifjon o'g'li</i>	Harbiy xizmatda vatanparlik tushunchasi va uning mazmun mohiyati	37-42
<i>Musayeva Madina Axmad qizi</i>	Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usiini shakllantirish.psixologik yondashuv	42-45
<i>Jaynarova Bahor Isoqul qizi</i>	Globalashuv jarayonida yoshlar tarbiyasida ota-onaning o'rni	46-49
<i>Omonqulova Sevinchbonu Sayfullo qizi</i>	"O'zbekistonda psixologiya sohasi rivojlanishining yutuqlari va kamchiliklari"	49-56
<i>Xamadulloyeva Zarina Xasanboy qizi</i>	"Shaxs shakllanishida sport faoliyatining ahamiyati"	56-59
<i>Xakimova Dilrabo</i>	Stress va uning inson hayotiga ta'siri	59-62
<i>Mamaraximova Xalimaxon Foziljon qizi</i>	Psixologiya fanining bugungi kundagi o'rni.	62-66
<i>Shirinboyeva Shaxzoda Shuxrat qizi</i>	Shaxslardagi agressiv va tajovuzkorlik holatlarning psixologik	66-71
<i>Qurbanboyeva Qizlarxon Jaloliddin qizi</i>	Nutqida nuqsoni mavjud o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	71-76
<i>Rustamova Mohida Tadjiboy</i>	Rivojlanishda nuqsoni bor o'quvchilar	76-80

<i>Elmurod qizi</i>	qilish istiqbollari	
<i>Hokimov Bosimjon Shuhrat o'g'li</i>	Tibbiyotda psixodiagnostika va psixokorreksiyaning o'rni.	157-163
<i>Toshtemirova Nodira Shokir qizi</i>	Bolaning ijtimoiylashuvida ma'naviy-axloqiy asarlarning pedagogik o'rni.	15163-166
<i>Karaboyeva Gulzoda Akbarali qizi</i>	Noto'liq oilada tarbiyalanoyotgan bolalarni ijtimoiylashuv jarayonidagi psixologik omillari.	166-171
<i>Karaboyeva Gulzoda Akbarali qizi</i>	Oiladagi nizolar, ularning sabablari va oqibatlar.	171-175
<i>Кобилова Феруза Тolibовна</i>	Психологический роль в преподавании иностранных языков	175-179
<i>Kobilova Feruza Tolibovna</i>	Pedagogical psychological factors in the development of english language skills through communication	179-183
<i>Kobilova Feruza Tolibovna</i>	Ingliz tili nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik va psixologik omillar	183-188
<i>Ashiqbayev Erlon Mansur o'g'li</i>	"Shaxsiy temperament: uni bilish va boshqarish	188-192
<i>Razzaqov Bekzod Botir o'g'li</i>	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls topshiriqlaridan foydalanib o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi (Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida)	192-202
<i>Radjabov Shoxruxmirzo</i>	Differensial yondashuv asosida bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	202-207
<i>Radjabov Shoxruxmirzo Suxrobovich</i>	Oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik tavsiyalar	207-212
<i>Burxonboyeva Barchinoy Elmurod qizi</i>	Gumanistik psixologiyada shaxs muammosi va bugungi kundagi ahamiyati	212-218
<i>Nurqobilov Rasulmat Akmal o'g'li</i>	Boshlangich ta'limda ona tili fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	218-222
<i>Alijanova Maftuna Mirzoxid qizi</i>	Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda zamonaviy yondashuvlar	222-227
<i>Икрамова Маликабону Азизовна</i>	Роль психологии в преподавании иностранных языков	227-232
<i>Xusnida Adilovna</i>	Kuzatish – bolalarda kontsentratsiya rivojlanishini tadqiq qilish metodi sifatida	232-238
<i>Алиджанова дочь Мафтуна Мирзохида.</i>	Экспериментальное исследование профессиональных интересов и	238-248

	способностей учащихся	
<i>Rustamova Mohida</i>	Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish	248-254
<i>Yusufova Dilbar Ruzim qizi</i>	Psixologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarga yoshlarning munosabati	254-257
<i>Bozorboyev Jaloliddin Utkirovich</i>	Yoshlarning shaxsiy munosabatlarini shakllantiruvchi psixologik omillar	257-261
	madaniy-ma’rifiy qarashlar	261-266
<i>Otaxonov Bobur Botirjonovich</i>	Yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirishda tarbiyaning ahamiyati	266-270
<i>Raxmatullayeva So‘g‘diyona Ruslan qizi</i>	Yoshlarning madaniy qadriyatlarga munosabati va uni shakllantirish usullari	270-273

**“ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION
TASHABBUSLARI: YANGICHA YONDASHUVLAR VA
TRANSFORMATSIYALAR” MAVZUSIDAGI
II-TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

III-Sho‘ba. Psixologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlarga yoshlarning munosabati

2025-yil 27-mart

I-QISM

Muharrir: X.Xaknazarov.
Texnik muharrir: M.Ibotova.

Bosishga ruxsat etildi: __.__.2025. Buyurtma: № __ Format 60x90/16
Times New Roman garniturasida raqamli usulida bosilgan.
Hajmi:sh.b.t., 0,99 t.-h.t. Adadi: ____ nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi